

BADIIY TARJIMANING BA'ZI MUAMMOLARIGA DOIR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460747>

Sarvara TOSHALIYEVA,
TDSHU katta o‘qituvchisi,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998931712227;
E-mail: tashaliyeva@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tarjima jarayonida muqobil so‘zlarni tanlash, ekstralolingvistik unsurlar va tarjimadagi ba’zi g‘alizliklar haqida mulohazalar bildiriladi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima, ifoda shakli, ekstralolingvistik unsurlar, iboralarning muqobili.*

Аннотация. В данной статье обсуждаются вопросы выбора альтернативных слов, экстраграмматических элементов и некоторых пустаниц в процессе перевода.

Ключевые слова: *перевод, форма выражения, экстраграмматические элементы, словосочетание.*

Abstract. *This article discusses the choice of alternative words, extralinguistic elements and some confusions in the translation process.*

Key words: *translation, form of expression, extralinguistic elements, alternative of expressions.*

Badiiy tarjimada asliyat va tarjima matnlari voqelik manzarasining ikki timsolidir. Bu matnlar kitobxon uchun timsollar timsoli hisoblanadi. Bir tildan ikkinchi tilga o‘girish lisoniy-fikriy qayta yaratish jarayonigina bo‘lib qolmay, o‘zaro muqoyasa qilinayotgan timsollarning, manzara va tasavvurlarning, hatto qahramonlar nutqining mohiyatiy-mantiqiy, milliy va uslubiy tavsifini, o‘ziga xosligini saqlab qolish jarayoni ham hisoblanadi. Shu jihatdan tarjima lingvistik amalgina emas, madaniyatlararo o‘ziga xos qiyosiy tahlil hamdir. Bu o‘z-o‘zidan notanish madaniyat unsurlari yoki tushunchalari guruhiga xos so‘z-atamalarni(masalan, to‘n, chopon, chakmon, yaktak; ariq, anhor, jilg‘a....) tarjimada berishning eng maqbul usuli va vositasini tanlashni taqozo etadi. Zero, mutlaq muqobil, mutanosib tarjimaning bo‘lishi ham qiyin. Tarjima aynanligi esa nisbiy tushuncha.

Asliyat matni bilan tarjima matni o‘rtasidagi lisoniy farqlar qiyoslanayotgan har ikki tilning barcha sathlar bo‘yicha o‘zaro muvofiq emasligi bilan belgilanadi. Ko‘pincha bunday farqlar mazmun sathida emas, asosan ifoda shakli sathida ko‘zga tashlanadi. Ammo bu matn mazmuniy mundarijasi unsurlari bir-biriga aynan mos keladi, degani emas. Chunki kommunikantlar tagbiliimi bilan bog‘liq anglashiladigan mantiqiy-ma’naviy axborotlarni ham o‘z ichiga oladi.

Bir misol: “ Tokchadagi beshinchi chiroq pixillab yonar, uning atrofida katta bir parvona aylanar edi. Turobjon ham darcha yoniga o‘tirdi. Shipning qayeridir qirs etdi, qayerdadir kaltakesak chirqilladi”.(A.Qahhor. “Anor” hikoyasidan).

Ushbu tasvirdan zarur tagbilingma ega kitobxon quyidagi mazmunni ham bemalol idrok eta oladi: “beshinchi chiroq”- ham arzon, ham kerosin kam sarflanadigan, shiftga osilmaydigan, kichik shishali chiroq. Qadimda kambag‘alning kulbasida deraza emas, bitta-yu bitta kichkinagina darcha(tuynuk) bo‘lishini, shox-shabba ustiga loy bosilgan shipning qirs etishi, devorlari kovak, yaxshi suvalmagan devor kovaklarida kaltakesakning “chirqillashi” tabiiy bir hol ekanligi haqidagi axborot ham ifoda etilgan. Demak, turfa xil nolisoniy tajriba va malaka bilan bog‘liq bo‘lgan ekstralengvistik unsurlar (garchi ular matnda ifodalanmagan bo‘lsa-da) ma’lum tagbilingni taqozo etadi. Bu holat ham e’tiborda tutilishi zarur.

Asliyat mazmunini yaxshi idrok etmaslik, u o‘girilayotgan tilning so‘z boyligini, grammatik qurilishi va uslubiy imkoniyatlarini chuqur his qilmaslik tarjima tilida sun’iylikning yuzaga kelishiga, turli nuqson va g‘alizliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Quyida tavsiya etilgan asliyat matni (I) va uning tarjima (II) hamda tahrir (III)nusxalarining qiyosiy tahlili bu fikrning to‘g‘riligini ko‘rsatadi.

I. И во сне не было фрицу Яновичу покоя. Тьма растаяла и явилась страшные видения... Чудовище мохнатыми клешнями душит его. Цируля в страшных объятиях! Фриц Янович хочет вырваться, но жуткий фантом сжимает всё сильнее... и вдруг безобразная харя его превратилась в угюмую физиономию... Иргаш! («Приговор приведен в исполнение»...роман-хроника.- Т.; изд-во Г.Гуляма,1983,с.234)

II. Fris Yanovichning tushida ham tinchlik yo‘q edi. Qorong‘ulik asta-sekin yorisha boshladi va g‘alati ko‘rinishlar ko‘z shngida namoyon bo‘la boshladi. Qandaydir yovuz mahluq Sirulni o‘z panjalari bilan bo‘g‘a boshladi. Fris Yanovich bor kuchi bilan qutulishga urinmoqda, lekin mahluq uni borgan sari bor kuchi bilan bo‘g‘moqda. Shu payt badbashara mahluq inson qiyofasiga kira boshladi. Va asta sekin Ergashga aylandi. Ergash, uning nomi bilan qanchadan-qancha qonli voqealar bog‘liq. (Tarjimon E.Azimovning qo‘lyozma nusxasi).

III. Fris Yanovich uyqusida ham bezovta bo‘lardi. Tushida g‘alati sharpalar ustiga bostirib kelardi... bahaybat mahluq sertuk, qisqichbaqasimon panjalari bilan Sirulni dahshati domiga torta boshladi. Fris Yanovich bor kuchi bilan undan qutulishga urinardi, lekin vahimali arvoх g‘ayritabiyy kuch bilan bo‘g‘ardи. Shu payt uning badburush basharasi badqovoq qiyofaga aylandi. Ergash! (Tarjima muharriri nusxasi., T., 1985, 407-b)

Tarjimon nusxasida fe’l zamonlari noto‘g‘ri qo‘llangan, ayrim so‘zlar xato o‘girilgan, ba’zi tafsilotlarga e’tibor berilmagan, til vositalari asliyatga va grammatic qoidalarga nomuvofiq tarzda ishlatilgan. Natijada, yozuvchi uslubi, qahramonning ruhiy holati hamda voqea ritmi buzilgan. Tarjima muharriri esa buni yaxshi anglagan va matnni imkon qadar mukammallashtirishga erishgan. Muharrir asliyatdagи harakatning tugallanmaganligini – davom etayotganligini hisobga olib, “bo‘lardi”, “kelardi” shaklini to‘g‘ri qo‘llagan.

Millatlararo munosabatlar kengaygan, madaniy aloqalar rivojlangan, ijod erkinligiga keng yo‘l ochilgan hozirgi davrda ayrim tezkor tarjimonlar qalamiga mansub ba’zi tarjimalar va ular matnida ko‘zga tashlanayotgan g‘alizliklar nafaqat mutaxassis, balki oddiy kitobxon yoki tomoshabinning g‘ashiga tegayotganligi, uni badiiy adabiyotdan bezdirayotganligi sip emas. Bu ayniqsa so‘nggi yillarda efirga uzatilayotgan turk seriallari namoyishida ham ko‘zga tashlanadi.

To‘g‘ri, bu seriallarning yozma tarjima nusxasi, uning muallifi, muharriri, badiiy rahbari haqida ma’lumotga ega emasmiz. Ammo ko‘z o‘ngimizda har bir voqea, jarayon, qahramonlarning o‘y-fikrlari, munosabatlarini yaqqol ko‘rsatib turgan turli ma’nodagi so‘zlar, jumlalar, xitoblar ham ijobiy, ham salbiy ta’siri bilan kishini befarq qoldirmaydi,

albatta. Shulardan ba’zilarini tahlil qilishni lozim topdik. Eshitish yordamida ajratib olingen bu ko‘chirmalar asosan qahramonlar nutqiga xos.

“Otang bilmisin” nomida berilgan hajviy-yumoristik uslubdagi serialda asosan bitta xonadondagi voqeа, oila va turmush mojarolari ko‘rsatilgan. Bu xonadonning bekasi asosiy qahramonlardan biri. U hayotda turli kechinmalarni, hayajonli damlarni kechirayotgan ayol timsoli. Ayolning nutqida har safar, har soniyada jaranglayotgan turkcha “Ay! Ay!” undov so‘zi o‘zbekcha matnga mutlaqo yopishmagan desak, xato qilmagan bo‘lamiz.

E’tibor bering: Ay, kimlar keldi? Ay, esimdan chiqibdi!

Hammaga ayonki, undov va taqlid so‘zlar o‘zga tildan olinmaydi, faqat tasodifan shaklan teng kelib qolishini hisobga olmaganda:

Ay! (turk)

Ай, ой (rus)

Ular milliyligi bilan boshqa so‘zlardan ajralib turadi. O‘zbek tilida esa “ay” undovi yo‘q. Shunday ekan, ushbu jumlada oddiygina “voy” undovini ishlatish o‘rinli bo‘ldi. Zero, o‘zbek tilining xitob, hayajon anglatuvchi so‘z va so‘zshakllarga boyligi, ularning ma’nodosh qo‘llanishlari barchaga birdek ma’lum.

Qiyoslang: “voy”-“ajabo”-“yo,tavba”,-“nahotki”.

Shaxsning sub’ektiv munosabatini, ijobiy his-tuyg‘usini bildirishga xizmat qiluvchi so‘zlar tarjimasida ham xuddi shunga o‘xhash hol kuzatiladi. Chunonchi, oddiy muomalada, so‘zlashuvda qo‘llanishi lozim bo‘lgan “aylanay”, “o‘rgilay” so‘zlarining o‘rnida “qurban bo‘lay” ifodasining ishlatilgani noo‘rin. Turk tilidagi “kurban olayım” ning so‘zma-so‘z tarjimasi bo‘lgan bu ifoda uslubiy qiymatiga ko‘ra farqli.

“Zerda” nomli serialda shunday jumla bor. Aynan keltiramiz: hasratni bilasiz, isi burnimdan ketmaydi. Turk tilida “hasret” so‘zi “sog‘inch” degan ma’noni anglatadi. Bu gap “Sog‘inch nimaligini bilasiz” shaklida o‘girilishi kerak. Demak, tarjimon har ikki tildagi so‘zning lug‘aviy ma’no mundarijasini anglab yetmagani holda gap tuzib, matnni u tildan bu tilga o‘giryapti.

Tildagi barqaror so‘z birikmlari hissiy ta’sirchanlikni ta’minalash bilan bir qatorda ma’lum bir millatning dunyoqarashini, munosabatini ham bildiradi. Bir tildan ikkinchi tilga matn o ‘girilganda mana shunday

birliklarning muqobilini topish va o ‘rnida qo ‘llash juda muhimdir. Ma’lumki, turk va o ‘zbek tillaridagi iboralarning ko‘pchiligi bir biriga yaqin. Ba’zi iboralarning esa muqobilini topish tarjimondan katta mahoratni talab etadi. Ibora tarkibidagi leksemalarning ma’nosidan butunlay boshqa mazmunni anglatishi ham mumkin.

Nazarimizda, turk tilidagi “juda ham sog‘indim” degan ma’noni anglatuvchi “burnumda tütyor” iborasi so‘zma-so‘z noto‘g‘ri tarjima qilingan. “Kalbini kirdim” (dilini og‘ritmoq)iborasi ham “yuragingni og‘ritdim” tarzida o‘girilgan.

Shu o‘rinda ta’kilash kerakki, turk va o‘zbek tillari leksik jihatdan bir-biriga juda o‘xshash. Aynan shu o‘xshashlik tarjima jarayonida ehtiyyotkorlikni talab etadi. Chunki shaklan yaqin bo‘lgan so‘zlar har doim ham bir ma’noni anglatmaydi. Bu jihatlarni e’tibordan chetda qoldirish esa tarjima matnining tushunarsiz va g‘aliz bo‘lishiga olib keladi. Masalan:

Sen unga aslo yuz berma. (“Muhabbat simfrniyasi”dan) Bu gapda “yüz vermek” iborasi so‘zma-so‘z tarjima qilingan. Buning o‘rniga o‘zbek tilidagi “yon bosmoq” iborasi ishlatilishi kerak edi. Demak, tarjima qilish uchun tildagi mavjud frazeologik birliklarni bilish va muqobilini topa olish kerak.

Turk tilida “Hakkını helal et”, ya’ni o‘zbekcha “rozi bo‘ling” ma’nosidagi analitik fe’l shaklini aynan turkcha andozada “haqqizingizga rozi bo‘ling” tarzida, “kutilmagan mehmon” ma’nosidagi “Tanrı misafiri ” iborasini esa “xudo yuborgan mehmon” tarzida o‘girilishi to‘g‘ri emas. “Aklınızda” so‘z shaklini “aqlingizda”deb emas, balki “esingizda” shaklida, “canım istemedi” esa “ko‘nglim istamadi” emas, “xohlamadim” tarzida o‘girilishi kerak.

“Ishq ertagi” nomli serialda bir qahramon “Yovvoyi mushukdek kirib kelding” deb aytadi. Bir qarashda xato yo‘qdek. Boylarning ziyofatiga kelib qolgan qizga qarata aytilgan bu jumla tushunarsizdek. Tomoshabinda o ‘z-o ‘zidan savol paydo bo ‘ladi. Yovvoyi mushuk qanday yuradi? Qizning unga nima aloqasi bor? Aslida qahramon yovvoyi mushukni emas, ertak qahramoni bo‘lgan Zolushkani nazarda tutadi. Yana bir misol:

Juda go‘zal bir ayol haqida gapirayotgan qahramon “Jadval kabi ayol” deb ta’rif beradi. O‘zbekchani yaxshi bilgan tomoshabin ham bu gapning ma’nosini tushuna olmasligi aniq. Turk tilida “tablo gibi kadin” “suratda

chizib qo‘yilgandek chiroyli” degan ma’noda qo‘llanilgan va tarjimada juda g‘aliz o‘girilgan.

Tarjima jarayonida asliyatga mos keladigan , to‘g‘ri muqobilni topish bilan bog‘liq g‘alizliklar hali tarjimashunoslikda, tahrirshunoslikda, rejissurada amaliy muammolar ko‘pligidan dalolat beradi.

REFERENCES

1. Sanjar Siddiq. Adabiy tarjima san’ati, O‘zAS, 1991-yil, 22-noyabr.
2. Salomov.G’. Til va tarjima. T., 1966.
3. Toshaliyev i. Adabiy tahrir asoslari.-T.;O‘zMU,2001, 20-b;
4. Toshaliyev I., Holiqova M. Tarjimaning asliyatga aynanligi muammosi. “Istiqlol va til”-O‘z DJTU ilmiy-amaliy anjumani materiallari, -T.: 2004, 6-9-betlar
5. Mubarakova, P. D. (2022). cultural, historical, scientific and economic relations”.
6. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
7. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
8. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
9. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
10. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.